

TOVAR BELGISINIDAN NOQONUNYI FOYDALANISH VA UNING OQIBATLARI

Oltiyeva Maftuna G'ayrat qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi

maftunaoltiyeva@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada tovar belgisining ahamiyati, uning kelib chiqishi, tovar belgisidan qonunga xilof foydalanish masalalari, huquqbuzarlarga nisbatan ko'riladigan choralar hamda ushbu sohani tartibga solishga qaratilgan qonunchilikdagi o'zgartirishlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: tovar belgisi, kontrafakt mahsulot, tovar-imitator, shaxsiylashtirish vositasi, noqonuniy foydalanish

Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini rivojlantirish, liberallashtirish va barqarorlashtirishga qaratilgan islohotlar mamlakatimizda xususiy tadbirkorlikning kengayishi hamda O'zbekiston bozorlariga kirib kelish istagida bo'lgan xorijiy investorlar sonining ko'payishiga xizmat qilmoqda. Bu esa o'z navbatida milliy hamda xorijiy korxonalar nomoddiy aktivlarining salmoqli qismini tashkil etuvchi, mahsulot va xizmatlarni shaxsiylashtirishga xizmat qiladigan tovar belgilarini xalqaro talablarga mos darajada himoya qilish ehtiyojini keltirib chiqarmoqda.

Barchamizga ma'lumki, tovar belgisi intellektual mulk huquqining ajralmas qismini tashkil etadi. Yuridik adabiyotlarda keltirilishicha, tovar belgisi sifatida ishlatiladigan har qanday belgining eng muhim jihati uning farqlovchi xususiyatidir [1]. Shuningdek, tovar belgisi ishlab chiqaruvchi va iste'molchini o'zaro bog'lab turuvchi ko'prik vazifasini bajarib [2], ishlab chiqaruvchi uchun xaridorlarning e'tiborini jalb qilish, iste'molchilar uchun esa ko'p sonli raqobatchilar orasidan o'ziga kerakli tovarni ajratib olishga xizmat qiladi.

Tovar belgisidan foydalanishni tartibga solish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarning vujudga kelishi taxminan milodiy 1266-yillarga borib taqaladi. Bu vaqtda Angliya parlamenti har bir novvoy uchun o'z mahsulotiga boshqalarnikidan farqlovchi belgini qo'yish majburiyatini yuklagan edi [3]. Tovar belgisini muhofaza qilish va huquqiy tartibga solish sohasining yanada taraqqiy etishi Yevropada yuz bergan sanoat inqilobi davri va hozirgi zamonga

to'g'ri keladi. Masalan, 2022-yil bo'yicha butun dunyo ichida eng katta brend sifatida qiymati 947,062 mlrd AQSH dollarini tashkil etuvchi barcha uchun taniqli bo'lgan "Apple" tovar belgisi tan olingan. Keyingi o'rinlarni esa mos ravishda qiymati 819,573 va 705,646 mlrd AQSH dollarida baholangan Amazon va Google kompaniyalari egallagan [4]. Albatta bu ko'rsatkichlarga tovar belgisining real qiymati pasayishiga sabab bo'ladigan noqonuniy foydalanishni cheklashga qaratilgan samarali mexanizmlarsiz erishishning imkoni yo'q edi. Shu omillarni hisobga olgan holda,

intellektual mulk sohasida shaxsiyashtirish vositalarini himoya qilish alohida ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Intellektual mulk agentlikining bergan ma'lumotlariga ko'ra 2021-yilda tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazish uchun 8804 ta talabnoma kelib tushgan bo'lib, bu avvalgi yilgiga nisbatan talablar soni 29.3 foizga ortganini ko'rsatadi. Shuningdek, ushbu talabnomalarning 84.7 foizi mahalliy talabgorlar tomonidan berilgan bo'lsa, qolgan 15.3 foizi – 956 tasi (o'tgan yilgiga qaraganda 15.2 foizga ko'p) chet ellik talabgorlar ulushiga to'g'ri keladi [5]. Ushbu raqamlar yurtimizda ham kundan- kunga tovar belgisining roli oshib borayotganligi, shu bilan birga ulardan foydalanish bilan bog'liq nizolar sonining ortib borayotganligidan dalolat beradi. Tadbirkorlar tez-tez duch keladigan tovar belgilari bo'yicha nizolarning asosiy turlariga quyidagilarni kiritishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Bular:

- tovar belgisini noqonuniy ro'yxatdan o'tkazish;
- tovar belgisidan noqonuniy foydalanish;
- adolatsiz raqobat (tovar belgisi foydalanish bilan bog'liq).

Quyida tovar belgisidan noqonuniy foydalanish tufayli yuzaga kelgan nizolar hamda ularga nisbatan ko'rilgan choralarni huquqiy tahlil qilamiz. Tovlar belgisidan noqonuniy foydalanish asosan kontrafakt mahsulotlarni ishlab chiqarishda namoyon bo'lib, uning mohiyatini tushunish uchun avvalo ushbu atamaning ma'nosini tushunib olish talab etiladi. "Kontrafakt" tushunchasi lotin tilidagi *contrafactio* so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "qalbaki" degan ma'noni anglatadi [6].

Bozorda ommabop bo'lgan va yuqori sifatlilik bilan nom qozongan tovar belgilaridan noqonuniy yo'l bilan foydalanib boshqa korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan va realizatsiya qilingan tovarlar – kontrafakt hisoblanadi.

Bundan ko'zlangan asosiy maqsad esa nosog'lom raqobat olib borish va xaridorlarni chalg'itish orqali daromad topishdan iboratdir.

Kontrafakt keng qamrovli tushuncha bo'lib, O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari unga umumiy ta'rif berish bilan kifoyalanadi. Vaholangki, bu o'z navbatida ushbu terminning noto'g'ri sharhlanishi va tovar belgisi egalarining buzilishiga olib keladi. Kontrafakt – tovar belgisidan noqonuniy foydalanishning bir qancha turlarini o'zida jamlagan. Masalan, qalbaki tovar, parallel import va tovar-imitator shular jumlasiga kiradi [7]. Qalbaki mahsulot – bu iste'molchilarni adashtirish maqsadida, soxtalashtirilgan tovar belgilaridan foydalangan holda ishlab chiqarilgan mahsulotlar hisoblanadi. Ya'ni bunda kontrafakt ishlab chiqaruvchi korxonaga aynan o'sha tovar belgisini egasining ruxsatisiz o'z mahsulotiga joylashtiradi.

Parallel import deganda tovar belgisi egasining ruxsatisiz mahsulotlarni boshqa mamlakat hududiga olib kirish tushuniladi.

Tovar-imitator esa tovar belgisining muayyan qismlarini ko'chirib olish yoki unga taqlid qilish orqali yaratilgan tovar belgisi ostida chiqarilgan mahsulot hisoblanadi. Ko'pincha unchalik murakkab ishlab chiqarish va qadoqlash texnologiyasiga ega bo'lmagan tovar belgilari ushbu turdagi kontrafaktni yaratish uchun qo'l keladi. Mazkur holatga misol qilib “RICOMEL BEVERAGES” MChJ va “CHUST BOG' AGRO” MChJ “ o'rtasida kelib chiqqan nizoni havola qilishimiz mumkin [8]. Aniqlanishicha, “RICOMEL BEVERAGES” MChJ o'zi tomonidan ishlab chiqariladigan salqin ichimliklarga nisbatan “DINAY” tovar belgisi hamda uni qadoqlash uchun mo'ljallangan maxsus idishga nisbatan Intellektual mulk agentligidan tegishli tartibda guvohnoma olgan. Lekin Namangan viloyatida joylashgan tadbirkorlik subyekti “CHUST BOG' AGRO” MChJ ichimlikni qadoqlash idishi hamda uni qoplab turuvchi etiketka dizaynidan huquq egasining ruxsatisiz, qonunga xilof ravishda foydalanib kelgan.

1-rasm.

Yuqoridagi rasmdan ko'rishimiz mumkinki, “NASH SAD” nomi ostidagi mahsulotlarning qadog'i tashqi shakli jihatidan, idishning aynan ma'lum joylarida chiziqlar mavjudligi, qopqoq shakli va ranglar uyg'unligi jihatidan tovar belgisi egasi tomonidan ishlab chiqarilayotgan “DINAY” nomi ostidagi mahsulotlarga adashtirib yuborish darajasida o'xshashdir. Shuningdek ushbu

tovarlarning bir turdagi tovarlarga mansubligi, bir xil materialdan ishlab chiqarilgani va bir joyda sotilishi iste'molchida mazkur mahsulotlar bitta ishlab chiqaruvchiga qarashli degan tasavvur paydo qiladi va ularning tovar ishlab chiqaruvchisi xususida chalg'ishiga olib keladi. Mazkur holat bo'yicha jinoyat ishlari bo'yicha Namangan tuman sudining 27-maydagi qaroriga ko'ra "CHUST BOG' AGRO" MChJning mansabdor shaxslari o'zganing tovar belgisidan qonunga xilof foydalangan deb topilib, ularga nisbatan bazaviy hisoblash miqdorining 10 barobari miqdorida jarima jazosi tayinlangan.

Shunday holatlardan yana biri Toshkent viloyatida aniqlangan bo'lib [9], unga ko'ra yakka tartibdagi tadbirkor barchaga mashhur bo'lgan "Nesquik" shokoladi tovar belgisidan noqonuniy foydalanib, "Nesquik" nomi bilan kontrafakt

mahsulotlar ishlab chiqarayotgani aniqlangan. Jinoyat ishlari bo'yicha Zangiota tumanlararo sudining qarori bilan huquqbuzar Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 177-moddasi birinchi qismi bilan jarimaga tortilgan.

Tovar belgisidan noqonuniy foydalanish bilan bog'liq yana bir huquqbuzarlik "M.R.R." (shartli nom) oilaviy korxonasi tomonidan sodir etilgan bo'lib, bunda oilaviy korxonasi "Red Bull GmbH" (Avstriya) kompaniyasiga tegishli bo'lgan tovar belgisiga adashtirib yuborish darajasida o'xshash bo'lgan belgidan qonunga xilof ravishda foydalangan holda "Red Bull ENERGY SANDY" noqonuniy tovar belgili qandolat mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish faoliyati bilan shug'ullanib kelganligi aniqlangan. "Red Bull GmbH" (Avstriya) kompaniyasi huquqbuzarga nisbatan bir necha marta ogohlantirish xati bilan murojaat qilganiga qaramasdan, oilaviy korxonasi o'z faoliyatida davom etib kelgan. Natijada "Red Bull GmbH" (Avstriya) kompaniyasi O'zbekiston Respublikasida o'zining mahsulotlarida qo'llaniladigan tovar belgilarini intellektual mulk agentligidan ro'yxatdan o'tkazib, huquqiy muhofaza olgan. Shundan so'nggina ish huquqbuzarga nisbatan tovar belgisidan noqonuniy foydalanganlik javobgarlik masalalari ko'rib chiqish uchun tegishli sudga yuborilgan, bu holatda ham sud jarima tayinlash bilan cheklangan.

Yuqorida keltirilgan uchala holatda ham sud tomonidan huquqbuzarga nisbatan ma'muriy jazo tariqasida jarima qo'llanilganligiga guvoh bo'ldik. O'zbekiston Respublikasida tovar belgisidan qonunga xilof ravishda

foydalanganlik Fuqarolik kodeksining 1107-moddasi tartibda ko'rilgan zararni undirib olish shuningdek, huquqbuzarga nisbatan faqat ma'muriy jazo chorasini qo'llash mumkin. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 177-moddasiga muvofiq jarimaning miqdori fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — o'n baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda etib belgilangan. Fikrimizcha mazkur summa to'lash kontrafakt mahsulotlari ishlab chiqaruvchi tadbirkorlarga qiyinchilik tug'dirmaydi va kelgusi faoliyatlari uchun ham yetarli darajada to'sqinlik qilmaydi.

Intellectual mulk agentligining 2021-yil uchun e'lon qilgan hisobotiga ko'ra, kontrafakt mahsulotlarning noqonuniy olib kirishi va aylanishining oldini olish bo'yicha o'tkazilgan monitoring natijalariga ko'ra mazkur yil davomida O'zbekiston hududlarida 335ta huquqbuzarlik holati aniqlangan [5]. To'g'ri bu ko'rsatkich mamlakat bo'yicha kontrafakt mahsulotlarining realizatsiyasi avvalgi davrga nisbatan ancha kamayganini ko'rsatadi, lekin O'zbekiston hali hamon Qo'shma shtatlar savdo vakolatxonasining (USTR) ning intellektual mulk himoyasi bilan muammolar mavjud bo'lgan mamlakatlar ro'yxatidan joy olib kelmoqda [9].

Bozorda kontrafakt mahsulotlarining aylanishiga chek qo'yilishi tadbirkorlar bilan bir o'rinda iste'molchilarning ham huquqlari himoya qilinishini ta'minlaydi. Tovar belgisidan noqonuniy foydalanishning oldini olish va ularni yo'q qilishning eng samarali yo'llardan biri esa ularga huquqbuzarlarga nisbatan ta'sir choralarning kuchaytirilishi hisoblanadi. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

2022-yil 26-aprelda "Intellectual mulk sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-221-sonli qarori qabul qilingan bo'lib, unga ko'ra sohada bir qancha o'zgartirishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Davlar bojxona qo'mitasiga Intellectual mulk obyektlarining bojxona reyestriga kiritilgan huquq egalari tegishli tovar belgilari bo'yicha qonunchilik talablari buzilishi aniqlanganda, bu to'g'risida xabar berish vazifasi yuklatildi. Bunga qadar bojxona organlari tovar belgisidan noqononiy foydanilgan tovarlar kirib kelishida huquq egasining arizasisiz hech qanday choralarni amalga oshira olmas edilar [7].

Shuningdek, “Tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va tovarlarning kelib chiqqan joy nomlari to‘g‘risida” gi qonunga yangi 371-modda kiritilib, tovar belgisidan yoki ular bilan adashtirib yuboradigan darajada o‘xshash bo‘lgan bir turdagi tovarlar uchun belgilardan qonunga xilof ravishda foydalanish yuridik shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima solinishiga asos sifatida belgilab qo‘yildi. Ko‘rishimiz mumkinki, jarima miqdori MJtKda keltirilgan jarimaga qaraganda 10 baravarga oshirilgan miqdorni nazarda tutadi hamda jarima qo‘llash vakolati bevosita Agentlikning o‘ziga taqdim etilgan. Intellektual mulkni himoya qilishga qaratilgan ushbu islohotlardan asosiy maqsad yurtimiz iqtisodiyotiga yangi innovatsiya va intellektual mulk namunalarini taqdim etish hamda ularning ishonchli huquqiy himoyasini ta‘minlashdan iborat bo‘lib, kelajakda o‘z natijasini beradi degan umiddamiz.

Adabiyotlar / References

1. Суханов Е.А. Российское гражданское право: Учебник: В 2 т. Т. I: Общая часть. Вещное право. Наследственное право. Интеллектуальные права. Личные неимущественные права / Отв. ред. Е.А. Суханов. – 2-е изд., стереотип. – М.: Статут, 2011. – 958 с.
2. Гаврилов Э.П. Право интеллектуальной собственности: предложения по совершенствованию законодательства / Э.П. Гаврилов // Патенты и лицензии. Интеллектуальные права, 2016. № 2
3. Мазаев Д. В. Гражданско-правовая защита прав на товарные знаки // Автореферат//«Национальный исследовательский университет «Высшая школа экономики» Москва, 2011.
4. Abdikhakimov, I. (2023, January). Trademark and copyright infringements in social media. In Science-Zone Online Conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 187-200).
5. Мехмонов, К. М. (2019). НЕКОТОРЫЕ ОСОБЕННОСТИ ДОГОВОРОВ, СВЯЗАННЫХ С ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫМИ ТЕХНОЛОГИЯМИ. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS OF LAW, SOCIOLOGY AND POLITICAL SCIENCE (pp. 54-62).
6. What are the most valuable global brands in 2022? (elektron manba) <https://www.kantar.com/inspiration/brands/what-are-the-most-valuable-global-brands-in-2022>
7. Mehmonov, Q. A. (2018). Civil legal protection of a database according to the legislation of foreign countries. Review of law sciences, 2(1), 11.
8. Yillik hisobot 2021// Adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk agentligi (elektron manba) https://my.ima.uz/uploads/files/yillik_hisobot_2021.pdf
9. Макарова Е.А. Инновации в определении контрафакта и фальсификата // Актуальные проблемы инновационного развития предприятий: таможенный аспект. – 2016. – С. 24-26
10. O'G'Li, I. D. B. (2022). YURIDIK SHAXSLARNING UMUMIY YIG'ILISH QARORLARINI HAQIQIY EMAS DEB TOPISHNING

HUQUQIY OQIBATLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 430-447.

11. Бахрамова М.А Проблемы правоприменительной практики защиты прав на товарные знаки и возможные пути их разрешения // Вестник юридических наук. – 2021.

12. Doniyorbek, I. (2022). MAJBURIYATNI BAJARMAGANLIK UCHUN JAVOBGARLIKNI QO'LLASH MUAMMOLARI.

13. “DINAY” tovar belgisiga nisbatan huquqbuzarlik holatiga chek qo'yildi.(elektron manba)
<https://m.kun.uz/uz/news/2022/06/13/dinay-tovar-belgisiga-nisbatan-huquqbuzarlik-holatiga-chek-qoyildi-yoxud-nash-sad-sudda-dinayga-yutqazdi>

14. Abdixakimov, I. (2022). Cyber Crimes in Digital Economy. *Elita. uz-Elektron Ilmiy Jurnal*, 1(1), 1-5.

15. “Nesquik” brendi ostida kontrafakt mahsulotlar ishlab chiqargan shaxsga chora ko'rildi.(electron manba)
<https://www.spot.uz/oz/2021/07/16/nesquik/> 10.2022 Special 30

16. Report of USTR(eletron manba)
<https://ustr.gov/sites/default/files/IssueAreas/IP/2022%20Special%20301%20Report.pdf>

17. Abdikhakimov, I. (2023). Legal Aspects of Social Media Marketing Contracts. *Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science*, 4(1), 125-130.

18. Toshmuxammatov, A., & To'xtayev, O. K. (2022). JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING IJTIMOY VA HUQUQIY ZARURIYATI. *Elita. uz-Elektron Ilmiy Jurnal*, 1(1), 5-16.